



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
<i>Sultonov Xaytboy Eraliyevich</i>	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
<i>Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi</i>	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
<i>Tengelbayeva Dinora Muratovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
<i>Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna</i>	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
<i>Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
<i>K. B. Numanov</i>	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
<i>Ismailov Abduvali Abdumalikovich</i>	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi	45
<i>Ergasheva Feruza Davlatali qizi</i>	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
<i>Xamdamova Muazzamxon Xabibullo qizi</i>	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
<i>Mamatmurotova Muhlisa Kamol qizi</i>	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
<i>Otabayeva Muazzam Abdumajidovna</i>	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
<i>Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna</i>	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
<i>Sharipov Hayotjon Safarovich</i>	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
<i>Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi</i>	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
<i>Baratova Madinaxon Paxridinovna</i>	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
<i>Jumayeva Farzona Behzodjon qizi</i>	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
<i>Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna</i>	



MAKTABGACHA TA'LIMDAN BOSHLANG'ICH TA'LIMGGA O'TISH DAVRIDA BOLALARNING KASBIY QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING UZLUKSIZ METODIKASI

Otabayeva Muazzam Abdumajidovna

Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0000-9729-4217>

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi ilmiy-nazariy va pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishning motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlari, shuningdek, ta'lim bosqichlari o'rtasidagi metodik uzviylikning pedagogik shartlari yoritilgan. Maktabgacha ta'limda o'yin, kuzatish va ijodiy faoliyat, boshlang'ich ta'limda esa to'g'arak, loyiha, amaliy mashg'ulot va interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi asoslangan. Tadqiqot natijasida bolalarning individual qiziqish va qobiliyatlarini izchil rivojlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz metodik yondashuv taklif etilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, kasbiy qiziqish, kasbiy rivojlanish, kasbga yo'naltirish, uzluksizlik.

Abstract: This article provides a scientific and pedagogical analysis of a continuous methodology for developing children's career interests during the transition from preschool to primary education. The study examines the motivational, cognitive, activity-based, and reflective components of career interest development, as well as the pedagogical conditions for ensuring continuity between educational stages. The effectiveness of play, observation, and creative activities in preschool education, along with clubs, project-based learning, practical tasks, and interactive methods in primary education, is substantiated. A continuous methodological approach aimed at the consistent development of children's individual interests and abilities is proposed.

Key words: preschool education, primary education, career interest, professional development, career guidance, continuity.

Аннотация: В статье научно-теоретически и педагогически исследована методика непрерывного развития профессиональных интересов детей в период перехода от дошкольного к начальному образованию. Рассмотрены мотивационный, когнитивный, деятельностный и рефлексивный компоненты развития профессиональных интересов, а также педагогические условия обеспечения преемственности между уровнями образования. Обоснована эффективность использования игровой, наблюдательной и творческой деятельности в дошкольном образовании, а также кружковых занятий, проектной деятельности, практических заданий и интерактивных методов в начальном образовании. Предложен непрерывный методический подход, направленный на последовательное развитие индивидуальных интересов и способностей детей.

Ключевые слова: дошкольное образование, начальное образование, профессиональный интерес, профессиональное развитие, профессиональная ориентация, непрерывность, преемственность.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida shaxsning intellektual, ma'naviy, ijtimoiy va kasbiy salohiyatini erta yoshdan boshlab rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy mehnat bozori, texnologik taraqqiyot va yangi kasblarning paydo bo'lishi bolalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasini faqat umumiy o'rta yoki oliy ta'lim bosqichi bilan chegaralab qo'ymasdan, maktabgacha ta'lim davridan boshlab bosqichma-bosqich tashkil etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bolaning qiziqishi, qobiliyati, ijodiy imkoniyatlari va turli faoliyatlarga munosabatini erta aniqlash hamda ularni keyingi ta'lim bosqichlarida izchil rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biridir.

Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylik masalasi bolaning faqat bilim va ko'nikmalarini davom ettirish bilangina cheklanmasligi kerak. Mazkur uzviylik bolaning qiziqishlari, ijodiy qobiliyatlari, muloqot ko'nikmalari, mustaqil faoliyat tajribasi va kelajak haqidagi dastlabki tasavvurlarini ham qamrab olishi lozim. Ayniqsa, kasbiy qiziqishlarning rivojlanishi nuqtayi nazaridan maktabgacha ta'limda shakllangan dastlabki tasavvurlarni boshlang'ich ta'lim bosqichida tizimli ravishda davom ettirish alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida maktabgacha ta'lim va tarbiya bolaning intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishini ta'minlashga qaratilganligi belgilangan^[4]. Mazkur normativ-huquqiy asosdan kelib chiqib, maktabgacha ta'limda bolaning turli faoliyatlarga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, uning individual imkoniyatlarini aniqlash va keyingi ta'lim bosqichiga uzviy tayyorlash muhim pedagogik vazifa sifatida qaralishi mumkin.

Shu bilan birga, zamonaviy ta'limda kasbiy qiziqish tushunchasini muayyan kasbni erta tanlash bilan tenglashtirish to'g'ri emas. Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshida bolaning kasbiy qiziqishlari hali dinamik va o'zgaruvchan bo'ladi. Bola bir vaqtning o'zida shifokor, o'qituvchi, quruvchi, rassom, dasturchi yoki boshqa kasb egasiga qiziqishi mumkin. Shu sababli ushbu bosqichda asosiy pedagogik maqsad bolani ma'lum bir kasbga yo'naltirish emas, balki uning kasblar olami haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, turli faoliyatlarni sinab ko'rishiga imkon yaratish va o'z qobiliyatlarini anglashiga ko'maklashishdan iborat bo'lishi kerak.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida bolaning rivojlanishi, uning qiziqishlari va individual imkoniyatlarini aniqlash hamda keyingi faoliyatga tayyorlash masalalari o'zbek, MDH va xorijiy pedagogika hamda psixologiya fanlarida turli jihatlaridan tadqiq etilgan.

O'zbek pedagogik adabiyotlarida shaxsning har tomonlama rivojlanishi, ta'lim va tarbiyaning uzviyligi hamda bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim metodologik tamoyil sifatida qaraladi. R. Mavlonova, O. To'rayeva va K. Xoliqberdiyevaning pedagogik qarashlarida ta'lim jarayonini bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos tashkil etish, uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor beriladi^[7].

N. Azizxo'jayeva tomonidan pedagogik texnologiyalarning mazmuni va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish masalalari tadqiq etilgan bo'lib, ta'lim oluvchining faol ishtiroki, pedagogik jarayonni maqsadga muvofiq loyihalashtirish va zamonaviy metodlardan foydalanish muhimligi asoslangan^[8]. Mazkur qarashlar maktabgacha ta'limdagi o'yin va ijodiy faoliyatni boshlang'ich ta'limdagi amaliy va loyihaviy faoliyat bilan bog'lash uchun metodik asos bo'la oladi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasida bolaning rivojlanishida o'yin faoliyatining alohida o'rni mavjud. Syujetli-rolli o'yinlar orqali bola kattalar faoliyatini modellashtiradi, turli ijtimoiy rollarni bajaradi va turli kasblar haqidagi dastlabki tasavvurlarni egallaydi. Shu sababli kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishning boshlang'ich bosqichini o'yin faoliyatidan ajratib tasavvur qilish mumkin emas.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning ilmiy yo'nalishi maktabgacha ta'limdagi dastlabki kasbiy tasavvurlarni boshlang'ich ta'limdagi tizimli kasbiy qiziqishlarni rivojlantirish faoliyati bilan bog'lashga qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasini uzluksizlik va izchillik, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar tashkil etdi. Uzluksizlik va izchillik yondashuvi maktabgacha ta'lim bosqichida shakllangan bolaning dastlabki qiziqishlari, faoliyat tajribasi va kasblar haqidagi tasavvurlarini boshlang'ich ta'limda yangi mazmun bilan davom ettirishni nazarda tutadi. Bunda ikki ta'lim bosqichi bir-biridan ajratilgan jarayon emas, balki bolaning uzluksiz rivojlanishini ta'minlovchi yagona pedagogik tizim sifatida qaraladi.

Tizimli yondashuv asosida kasbiy qiziqish bolaning muayyan kasbga bo'lgan oddiy qiziqishi sifatida emas, balki motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlarning o'zaro aloqadorligi asosida rivojlanadigan murakkab pedagogik-psixologik hodisa sifatida talqin qilindi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bolaning yoshi, individual xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning kasbiy qiziqishlari o'zgaruvchan bo'lishi sababli pedagogik jarayon bolani ma'lum bir kasbga yo'naltirishga emas, balki turli faoliyatlarni sinab ko'rishga undashi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish masalasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayon bolaning shaxsiy rivojlanishi, bilish faolligi, motivatsion ehtiyojlari, individual qobiliyatlari va ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'p komponentli pedagogik



jarayondir. Ushbu davrda bola tomonidan namoyon etiladigan kasbiy qiziqishlar hali barqaror kasbiy tanlov darajasiga yetmagan bo'lsa-da, uning muayyan faoliyat turlariga moyilligi, kattalar faoliyatini kuzatishi va taqlid qilishi, turli rollarni bajarishga intilishi hamda "Men kim bo'laman?" kabi savollarga qiziqishi kelajakdagi kasbiy o'zini anglashning dastlabki psixologik-pedagogik asoslarini shakllantiradi.

Tahlillar natijasida kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishni faqat kasblar haqidagi axborotni berish jarayoni sifatida talqin qilish metodik jihatdan yetarli emasligi aniqlandi. Chunki bolaning kasbiy qiziqishi axborotni bilish bilan bir qatorda, mazkur bilimga nisbatan ijobiy emotsional munosabat, faoliyatga ichki motivatsiya, amaliy tajriba, o'z qobiliyatlarini sinab ko'rish va faoliyat natijasini refleksiv baholash kabi komponentlarning o'zaro ta'siri asosida shakllanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishning uzluksizligi mazmun, metod, shakl va vositalarning o'zaro izchilligini ta'minlashni talab etadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy tahlili maktabgacha ta'lim bosqichida kasbiy qiziqishlarning asosan o'yin, taqlid, kuzatish, muloqot va ijodiy faoliyat orqali namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Syujetli-rolli o'yinlarda bolaning shifokor, o'qituvchi, quruvchi, oshpaz, haydovchi, sotuvchi yoki boshqa kasb egasi rolini bajarishi oddiy o'yin harakati bo'libgina qolmay, balki ijtimoiy rollarni anglash, kasbiy faoliyatning ayrim elementlarini modellashtirish va kasblar haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Demak, maktabgacha ta'limda kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishning metodik asosi bolaning tabiiy faoliyat turi bo'lgan o'yinni maqsadli pedagogik yo'naltirishdan boshlanishi lozim.

Boshlang'ich ta'lim bosqichiga o'tish bilan bolaning bilish imkoniyatlari, abstrakt tafakkuri, mustaqil faoliyatga bo'lgan ehtiyoji va ijtimoiy tajribasi kengayadi. Natijada maktabgacha ta'lim davrida shakllangan dastlabki kasbiy tasavvurlarni oddiy o'yin faoliyati bilan chegaralab qo'ymasdan, ularni amaliy topshiriqlar, to'garak mashg'ulotlari, ijodiy loyihalar, muammoli vaziyatlar va fanlararo integratsiya asosida rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Shu jihatdan ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylik kasbiy qiziqishlarning oddiy davomiyligi emas, balki ularning mazmunan murakkablashib, faoliyat jihatidan kengayib va refleksiv jihatdan chuqurlashib borishini anglatadi.

Tadqiqotda kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishning motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlari o'zaro bog'liq pedagogik tizim sifatida belgilandi. Mazkur komponentlarning har biri bolaning kasbiy rivojlanishida alohida funksional ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularning samaradorligi faqat o'zaro integratsiya sharoitida namoyon bo'ladi.

Motivatsion komponent bolaning turli kasblar va faoliyat turlariga nisbatan ijobiy munosabati, qiziqishi, faoliyatni ixtiyoriy bajarishga bo'lgan ichki ehtiyoji va yangi tajribalarni egallashga tayyorligini ifodalaydi. Maktabgacha ta'lim bosqichida ushbu komponent asosan qiziqarli syujetli o'yinlar, kasblar haqidagi suhbatlar, rasmlar, hikoyalar, videomateriallar va kasb egalari faoliyatini kuzatish orqali rivojlantirilishi mumkin. Boshlang'ich ta'limda esa motivatsion komponent to'garaklar, loyiha faoliyati, kasbiy kvestlar, rolli o'yinlar, ijodiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlar orqali yanada barqaror shaklga keltiriladi.

Kognitiv komponent bolaning kasblar olami haqidagi bilim va tasavvurlarini tavsiflaydi. Bunda bola muayyan kasbning nomini bilish bilan cheklanmay, uning vazifalari, faoliyat mazmuni, mehnat vositalari, ish sharoiti va jamiyatdagi ahamiyati haqida dastlabki bilimlarga ega bo'lishi lozim. Maktabgacha ta'limda bu bilimlar sodda, obrazli va ko'rgazmali shaklda berilsa, boshlang'ich ta'limda ularni fanlararo bog'liqlik asosida tizimlashtirish mumkin. Masalan, shifokorlik kasbi tabiiy fanlar bilan, me'morlik matematika va texnologiya bilan, jurnalistika ona tili va kommunikativ faoliyat bilan, dasturlash informatika va mantiqiy tafakkur bilan bog'lanadi. Natijada o'quvchi maktab fanlarini alohida bilimlar yig'indisi sifatida emas, balki kelajakdagi turli faoliyatlar uchun zarur bo'lgan bilimlar tizimi sifatida idrok eta boshlaydi.

Faoliyatli komponent kasbiy qiziqishlarning amaliy jihatini ifodalaydi. Mazkur komponentning shakllanishida bolaning turli faoliyatlarda bevosita ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'limda konstruktorlik, rasm chizish, modellashtirish, syujetli-rolli o'yinlar va oddiy mehnat topshiriqlari ushbu komponentning dastlabki shakllarini yuzaga keltiradi. Boshlang'ich ta'limda esa o'quvchilar "Yosh muhandis", "Yosh tadqiqotchi", "Yosh jurnalist", "Yosh dasturchi", "Yosh dizayner", "Yosh tadbirkor" kabi yo'nalishlarda amaliy topshiriqlarni bajarish orqali kasbiy faoliyatning ayrim elementlarini modellashtirishlari mumkin. Bunday faoliyat o'quvchining o'z qobiliyatlarini real topshiriq jarayonida sinab ko'rishiga va individual moyilliklarini anglashiga sharoit yaratadi.

Kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishda fanlararo integratsiya ham muhim natijaviy omil sifatida namoyon bo'ldi. Chunki zamonaviy kasblarning aksariyati bir nechta fan va kompetensiyalarni kompleks qo'llashni talab qiladi. Masalan, muhandislik faoliyatida matematika, informatika, texnologiya va tabiiy fanlar; shifokorlikda biologik bilimlar, kommunikativ kompetensiya va axborot texnologiyalari; jurnalistikada ona tili, mediasavodxonlik, axborot izlash va kommunikativ ko'nikmalar o'zaro uyg'unlashadi. Shuning uchun boshlang'ich ta'limda kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishni alohida mashg'ulot bilan chegaralashdan ko'ra, uni fanlararo mazmun bilan integratsiyalash samaraliroq hisoblanadi.

Tahlillar davomida individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish zarurati ham aniqlandi. Har bir bolaning kasbiy qiziqishi, qobiliyati va rivojlanish sur'ati bir xil emas. Ayrim bolalarda texnik-konstruktiv faoliyatga, boshqalarida kommunikativ faoliyatga, yana bir guruh bolalarda ijodiy yoki tabiiy-ilmiy faoliyatga moyillik ustun bo'lishi mumkin. Shu sababli pedagog kasbiy qiziqishni baholashda yagona mezon bilan cheklanmasligi, bolaning turli faoliyatlardagi xatti-harakatlari, qiziqish dinamikasi, topshiriq bajarish usuli, ijodkorligi va muloqot faoliyatini kompleks kuzatishi lozim.

Umuman olganda, tahlillar maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishni uzluksiz, bosqichma-bosqich va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik jarayon sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatdi. Ushbu jarayonning samaradorligi bolaning tabiiy qiziqishlarini saqlab qolish, ularni amaliy faoliyat bilan boyitish, kasblar haqidagi bilimlarni tizimlashtirish va o'quvchining o'z imkoniyatlarini anglashiga sharoit yaratish bilan belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasini takomillashtirishga qaratilgan nazariy-metodik tahlillar natijasida mazkur jarayon bolaning shaxsiy rivojlanishi, bilish faolligi, motivatsion ehtiyojlari, individual qobiliyatlari va ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'p komponentli pedagogik jarayon ekanligi aniqlandi. Kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishni faqat muayyan kasblar to'g'risida ma'lumot berish bilan cheklash bolaning individual imkoniyatlarini to'liq namoyon etish imkonini bermaydi. Shu sababli mazkur jarayonni bolaning tabiiy qiziqishlari, faoliyat tajribasi va rivojlanish xususiyatlari asosida bosqichma-bosqich tashkil etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim bosqichida kasbiy qiziqishlarning dastlabki elementlari asosan o'yin, taqlid, kuzatish, muloqot, ijodiy va konstruktiv faoliyat orqali shakllanishini ko'rsatdi. Bola turli syujetli-rolli o'yinlarda kasb egalarining faoliyatini modellashtirish, turli ijtimoiy rollarni bajarish va kattalar mehnatini kuzatish orqali kasblar olami haqida dastlabki tasavvurlarni egallaydi. Mazkur tajriba boshlang'ich ta'lim bosqichida uzviy ravishda davom ettirilishi, ya'ni o'yin va kuzatish orqali shakllangan qiziqishlar amaliy topshiriqlar, to'garak mashg'ulotlari, loyiha faoliyati, fanlararo integratsiya va kasbiy vaziyatlar orqali rivojlantirilishi lozim.

Tadqiqotda kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishning motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlari o'zaro bog'liq tizim sifatida belgilandi. Motivatsion komponent bolaning kasblar va faoliyat turlariga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qilsa, kognitiv komponent kasblar haqidagi bilim va tasavvurlarni kengaytiradi. Faoliyatli komponent bolaning turli kasbiy faoliyat elementlarini amaliy tarzda sinab ko'rishini ta'minlaydi, refleksiv komponent esa o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va faoliyat natijalarini anglash imkonini beradi. Ushbu komponentlarning izchil va kompleks rivojlantirilishi kasbiy qiziqishning barqaror pedagogik-psixologik sifatga aylanishiga zamin yaratadi.

Maqolada asoslangan uzluksiz metodik yondashuvning muhim jihati shundan iboratki, maktabgacha ta'limda bolaga muayyan kasbni tanlatish emas, balki uning kasblar olami haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va turli faoliyatlarni sinab ko'rish imkoniyatini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida esa mazkur dastlabki qiziqishlar tizimli bilim, amaliy faoliyat va refleksiv tahlil bilan boyitiladi. Shu asosda kasbiy qiziqishlarni rivojlantirish jarayoni "erta qiziqishni aniqlash – faoliyatga jalb etish – tajriba orttirish – qiziqishni mustahkamlash – o'zini anglash" izchilligida tashkil etilishi mumkin.

Umumlashtirib aytganda, maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishning uzluksiz metodikasi bolaning tabiiy qiziqishlarini aniqlash, ularni turli faoliyatlar orqali rivojlantirish, kasblar olami haqidagi bilimlarni bosqichma-bosqich kengaytirish va o'z imkoniyatlarini refleksiv anglashga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tizimning samaradorligi ta'lim bosqichlari o'rtasidagi metodik uzviylik, individual yondashuv, faoliyatga asoslangan ta'lim, fanlararo integratsiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ijtimoiy hamkorlikning kompleks amalga oshirilishiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyeva K. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
2. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
3. Климов Е. А. Психология профессионального самоопределения. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1996.
4. Асмолов А. Г. Психология личности: культурно-историческое понимание развития человека. – Москва: Смысл, 2007.
5. Hayitova Z. M. Stages of studying the professional activity of primary school students. – Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2025. – Vol. 5, № 6. – P. 68–70.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.